XALQ DEPUTATLARI OQDARYO TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-23-156-7-92-K/25 Oqdaryo tumani

Oqdaryo tumanining 2026 -yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27-, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi VII-24-191-7-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq hamda Oqdaryo tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 29-dekabrdagi 01/01.2-38/3945-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashining yettinchi chaqiriq yigirma uchinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuni hamda xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi VII-24-191-7-0-K/25-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Oqdaryo tuman byudjetining 2026-yilgi daromadlari **114 875,9 mln.so‘m** va xarajatlari esa **114 875,9 mln.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda Oqdaryo tuman byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **955,0 mln.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman byudjetidan 2026-yilda hududiy

byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 470,1 mln.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 3-ilovaga;

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (E.Ashurov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (N.Ismoilov), tuman Soliq inspeksiyasi (M.Ruzimamatov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Oqdaryo tumani Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohatlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Rabbanaqulov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (E.Ashurov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi:Qudratov Sherzod Asadovich

QUDRATOV SHERZOD ASATOVICH

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-156-7-92-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Oqdaryo tumani mahalliy byudjeti daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari miqdori

(ming.so‘mda)

T/r	Daromad turlari	Jami
	JAMI	**114 875 870**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	1 236 920
2	Foyda solig‘i	1 217 250
3	Aylanmadan olinadigan soliq	7 414 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	23 192 730
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	803 000
6	Aksiz solig‘i jami	1 578 150
	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	*1 578 150*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 732 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	13 867 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	22 695 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	33 200 440
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	905 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	6 158 000

	shundan: Qishloq xo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	5 645 000
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	-2 258 000
13	Davlat boji	725 400
14	Yig‘imlar	275 280
15	Jarimalar	1 223 700
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	140 000

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-156-7-92-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Oqdaryo tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

(ming.so‘mda)

T/r	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**114 875 870**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*35 505 148*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*3 399 000*
2	Madaniyat bo‘limi	*9 908 039*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*3 474 859*
4	Sport bo‘limi	*5 574 722*
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 579 075*
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*4 302 475*
7	Irrigatsiya bo‘limi	*2 794 000*
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2 381 326*
9	Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	*224 073*
10	Hokimiyat	*31 766 618*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*15 376 157*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*2 852 000*

	Zaxira jamg‘armasi	*1 470 058*
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*1 244 218*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*100 852*
	Axborot-kutubxona markazlari	*1 143 366*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	16 121 317

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-156-7-92-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	Mahalla fuqaro yig‘inlari nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun	
		Koeffitsient	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘mda)
1	Po‘latdarxon MFY	1,19	52 395 700
2	Sug‘onchi MFY	1,05	46 231 500
3	Taraqqiyot (Sobiq Po‘latdarxon MFYning bir qismi) MFY	1,05	46 231 500
4	Temirak MFY	0,93	40 947 900
5	Turon MFY Arpaariq	1,05	46 231 500
6	Uzunqishloq MFY	0,93	40 947 900
7	Yangiqo‘rg‘on MFY	1,19	52 395 700
8	Chorbog‘ MFY	1,32	58 119 600
9	Yangiqishloq MFY	1,05	46 231 500
10	Yangiobod MFY	1,05	46 231 500
11	Zarafshon MFY	1,05	46 231 500

12	Go‘zalkent MFY	1,19	52 395 700
13	Yangihayot MFY	1,19	52 395 700
14	Primkent MFY	1,05	46 231 500
15	Uchtepa MFY	0,93	40 947 900
16	Pichoqchi MFY	1,05	46 231 500
17	O‘zbekiston MFY	1,05	46 231 500
18	Olchintepa MFY	1,05	46 231 500
19	Paxtaobod MFY	1,05	46 231 500
20	Avazali MFY	0,93	40 947 900
21	Alisher Navoiy MFY	1,19	52 395 700
22	Bozorjoy MFY	1,32	58 119 600
23	Boshdarxon MFY	1,32	58 119 600
24	Galarovot MFY	1,19	52 395 700
25	Dahbed MFY	1,32	58 119 600
26	Z.M.Bobur MFY	1,05	46 231 500
27	Amir Temur MFY	0,93	40 947 900
28	Kumushkent MFY	1,05	46 231 500
29	Loyish MFY	1,46	64 283 800
30	Miyonqol MFY	0,93	40 947 900
31	Mustaqillik MFY	1,46	64 283 800
32	Navro‘z MFY	1,46	64 283 800
33	Istiqlol MFY	0,93	40 947 900
34	Oytamg‘ali MFY	0,93	40 947 900
35	Oqdaryo MFY	1,05	46 231 500

Izoh: *2025-yil 20-martdagi xalq deputatlari Oqdaryo tuman Kengashining VII-9-38-7-0-K/25-sonli qaroriga asosan Turon MFY nomi Arpaariq nomiga o‘zgartirilgan.*

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-156-7-92-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	Mahalla fuqarolar yig‘inlari nomi	Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsient	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘mda)
1	Po‘latdarxon MFY	1,23	375,86
2	Sug‘onchi MFY	1,09	333,08
3	Taraqqiyot (Sobiq Po‘latdarxon MFYning bir qismi) MFY	1,23	375,86
4	Temirak MFY	1,23	375,86
5	Turon MFY	1,09	333,08
6	Uzunqishloq MFY	0,96	293,36
7	Yangiqo‘rg‘on MFY	1,23	375,86
8	Chorbog‘ MFY	1,09	333,08
9	Yangiqishloq MFY	0,96	293,36
10	Yangiobod MFY	1,23	375,86
11	Zarafshon MFY	0,96	293,36

12	Go‘zalkent MFY	1,09	333,08
13	Yangihayot MFY	1,23	375,86
14	Primkent MFY	0,96	293,36
15	Uchtepa MFY	0,96	293,36
16	Pichoqchi MFY	1,09	333,08
17	O‘zbekiston MFY	1,23	375,86
18	Olchintepa MFY	1,09	333,08
19	Paxtaobod MFY	1,09	333,08
20	Avazali MFY	1,23	375,86
21	Alisher Navoiy MFY	1,37	418,64
22	Bozorjoy MFY	1,37	418,64
23	Boshdarxon MFY	1,09	333,08
24	Galarovot MFY	0,96	293,36
25	Dahbed MFY	1,37	418,64
26	Z.M.Bobur MFY	1,23	375,86
27	Amir Temur MFY	1,23	375,86
28	Kumushkent MFY	1,09	333,08
29	Loyish MFY	1,51	461,43
30	Miyonqol MFY	0,96	293,36
31	Mustaqillik MFY	1,51	461,43
32	Navro‘z MFY	1,51	461,43
33	Istiqlol MFY	0,96	293,36
34	Oytamg‘ali MFY	0,96	293,36
35	Oqdaryo MFY	1,23	375,86

Izox: 2025-yil 20-martdagi xalq deputatlari Oqdaryo tumani Kengashining VII-9-38-7-0-K/25-sonli qaroriga asosan Turon MFY nomi Arpaariq nomiga o‘zgartirilgan